

3/2025,  
may-  
iyun  
(№ 00077)



## DAVLAT MOLIYASINI NAZORAT QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Saparov Elmurod Donabayevich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Email:** [elmurod\\_saparov@inbox.ru](mailto:elmurod_saparov@inbox.ru)

**Orcid:** <https://orcid.org/0000-0003-2938-1145>

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss3/746](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss3/746)

### **Annotatsiya**

Davlat moliyaviy nazorati davlat funktsiya va vazifalarini mablag' bilan ta'minlashga yo'naltirilgan mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishini kuzatib borishni taqozo etadi. Mazkur maqolada 2016 yildan keyingi iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida davlat moliyasini nazoratidagi o'zgartirishlar borasida fikr mulohazalar bildirilgan. Muallif kelgusida davlat moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirish yuzasidan taklif va tavsiyalarini, mualliflik qarashlarini bildirib o'tgan.

**Kalit so'zlar:** davlat moliyaviy nazorati, davlat budjeti xarajatlari, jamoatchilik nazorati, ichki audit, hisobdorlik.

### **Аннотация**

Государственный финансовый контроль требует осуществления контроля за целевым и нецелевым расходованием средств, предназначенных для финансирования государственных функций и задач. В статье дается анализ изменений в контроле за государственными финансами на новом этапе экономических реформ после 2016 года. Автор высказал свои предложения и рекомендации, а также собственные взгляды на дальнейшее усиление государственного финансового контроля в будущем.

**Ключевые слова:** государственный финансовый контроль, расходы государственного бюджета, общественный надзор, внутренний аудит, подотчетность.

### **Abstract**

State financial control requires monitoring the targeted and targeted spending of funds allocated to finance state functions and tasks. This article provides comments on changes in state financial control in the new stage of economic reforms after 2016. The author expressed his proposals and recommendations, author's views on further strengthening state financial control in the future.

**Keywords:** state financial control, state budget expenditures, public control, internal audit, accountability.

### **Kirish**

Xalqaro valyuta fondining ta'kidlashicha<sup>1</sup>, davlat moliyaviy boshqaruvi va ichki nazoratning muhim xususiyatlari nazoratning samarali tashkil qilinganligidir. Shuningdek,

<sup>1</sup> Noel Hepworth. (2024). Public Financial Management and Internal Control. The Importance of Managerial Capability for Successful Reform in Developing and Transition Economies. Tis Palgrave Macmillan imprint is published by the

Davlat xizmati bo‘ylab puxta ishlab chiqilgan siyosat va professional operativ boshqaruv orqali davlat resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash hamda risklarni hisobga olgan holda istiqbolga intilish va davlat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligiga tahdid soladigan majburiyatlarning qabul qilinmasligini ta‘minlashdan iborat bo‘lmoqda.

Respublikadagi tegishli vazirlik va idoralaridagi budget ijrosini maqsadli va samarali tashkil qilish bo‘yicha ichki audit tizimining amaliyotga joriy qilinishi ham islohotlarning natijasi hisoblanadi. Davlatning umumiy budget ijrosini ta‘minlashda uning shaffofligi hamda ochiqqligini ta‘minlash o‘z navbatida keyingi islohotlar sirasiga kiritiladi. Davlat budgeti 2019 yildan boshlab Qonun shaklida Oliy majlis tomonidan qabul qilinmoqda hamda ushbu davrdan boshlab aholining budget jarayonlarida faol ishtirokini ta‘minlash hamda moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida Fuqarolar uchun budget loyihasi chop etilib kelinmoqda hamda “Openbudget” portalining tashkil qilinishi yangi loyiha sifatida keltirilgan “Tashabbusli budget loyihasini” qo‘llab-quvvatlash bo‘lsada, asosiy maqsad aholining budget jarayoniga e‘tiborini qaratish hamda jamoatchilik nazoratini shakllantirish hisoblanadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlariga erishishda Davlat budgeti mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni ta‘minlash uchun davlat moliyaviy nazoratini yanada kuchaytirish, budget mablag‘larini taqsimlovchi vazirlik va idoralarda ichki audit tizimini takomillashtirish, shuningdek, jamoatchilik ishtiroki va nazoratini kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 iyundagi “Budget mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-100-sonli Farmoni tasdiqlangan.

Shuningdek, strategiyaga asosan belgilangan maqsadlarning 4-maqsadi Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini “fuqarolarga xizmat qilishga yo‘naltirish” tamoyili asosida transformatsiya qilishda Davlat budgeti xarajatlari samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish vazifasi belgilangan bo‘lib, davlat moliyaviy nazorat tizimini isloh qilish, ichki nazoratni oshirish, ochiq axborot tizimini takomillashtirish, markazlashtirilgan investitsion loyihalar ijrosini monitoring qilish va nazorat bo‘yicha malakali xodimlarni tayyorlash kabilar (PF-60, 2022).

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Nazorat organlari bo‘yicha bir qator tashkilotlarni aytib o‘tish mumkin. Bunda nazorat organlarida yuqori darajada O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi o‘rin olgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va va uning hududiy bo‘linmalari ham moliyaviy nazoratni tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi vakolatli organ hisoblanadi (Budget kodeksi, 2014).

Moliyaviy nazoratning rivojlangan ko‘rinishlari sifatida ichki audit hamda raqamlashtirish orqali takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli moliyaning rivojlanishi ichki audit samaradorligini sezilarli darajada oshirdi, tadqiqotlar raqamlashtirish va audit sifati o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatdi. Raqamli moliya keng tarqalgani sayin, audit sifati yaxshilanishi prognoz qilinmoqda. Katta ma‘lumotlar tahlillarda texnologiyalardan foydalanish audit jarayonlarini optimallashtiradi, samaradorlik va aniqlikni oshirishga xizmat qiladi. (Xolid va boshqalar, 2024; Ye va Yue, 2024).

Mamlakat va alohida hududlarni samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining pul mablag‘larini shakllantirish,

taqsimlash va ulardan foydalanish sohasidagi harakatlarning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini nazorat qilish (Prokofev, 2015).

Davlat moliyasini boshqarishda mahalliy budjet ijrosini ta'minlashdagi vakolatli organlarning moliyaviy nazoratni amalga oshirishda vakolatlari cheklangan. Mahalliy budjet ijrosini ta'minlashdagi nazoratni tashkil qilishdan mahalliy hokimiyat organlari manfaatdor emasligi sababli ham ahamiyatli hisoblanmaydi (Matveeva, 2020).

Jamoatchilik nazoratini ta'minlash bilan bir qatorda moliyaviy nazoratni shaffofligini ta'minlash prinsipi ham mavjud bo'lib, tegishli vakolatli organlarning rahbarlari jamoatchilikka hisobdor, nazorat natijalarini ifoda etishning aniqligi nazarda tutiladi. Nazoratni tashkil qilishdagi nazorat organlari xodimlarining kasbiy bilim, mahorati mavjudligi va oshkoralik prinsiplariga asoslanadi.

Shoxin (2018) tomonidan ilgari surilgan qarashlar asosan kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish usullari va jazolash tartibi masalalariga qaratilgan. Shoxin nazoratning har xil shakllarini rivojlantirish va ularning o'zaro muvofiqligini ta'minlash orqali tizimning yaxlitligini va samaradorligini oshirishni maqsad qiladi. Shu bilan birga, oliy audit organlari xalqaro tashkiloti standart usullari sifatida – taftish va sayyor tekshirishlarni keltiriladi.

Matveeva (2020) tomonidan davlat budjeti xarajatlarining amalga oshirilishi jarayonidagi barcha nazorat turlarining amalga oshirilishi, bunda tegishli tartibda boshqaruv orgalarining nazorat qilishi ichki moliyaviy nazorat ekanligini ta'kidlab o'tgan. Ichki audit 2 xil ya'ni markazlashgan va markazlashmagan shaklda tashkil etilishi mumkin. Markazlashgan shakli Fransiya, Portugaliya, Lyuksemburg va Ispaniya misolida ko'rishimiz mumkin. Markazlashmagan modelda esa ichki audit alohida vazirliklar qoshida tashkil etiladi va soha rahbarlariga axborot berib boriladi. Bu modelni Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari va Niderlandiya mamlakatlari misolida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, markazlashmagan ichki audit modelini yo'lga qo'yish talabi Yevropa Ittifoqiga kirmoqchi bo'lgan mamlakatlarga qo'yilgan. Xususi sektor tashkilotlari bo'yicha olib borilgan ko'pgina tadqiqotlarda nazorat muammosi holatlarida qattiq budjet nazorati samarasiz bo'lishi mumkin. Biroq, ba'zi tashkilotlar uchun bashorat qilish va nazorat qilish zarurati budjet nazoratining potensial disfunktsional xatti-harakatlar ta'sirini minimallashtirish kabi muhimdir (IMF 2017a). Budjetga rioya qilish uchun siyosiy va institutsional bosimga duch kelayotgan davlat sektori tashkilotlari bunga misoldir. Schisk (1998) shuningdek, past va o'rta daromadli mamlakatlarda ishonchsiz budjetlarga hissa qo'shadigan turli xil zararli budjet amaliyotlarini tasnifladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Davlat budjetining samarali va natijaga yo'naltirilgan maqsadlariga erishishda hamda davlat budjetining taqchillik bilan moliyalashtirishdagi holatidan kelib chiqib nazorat tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Maqolada davlat budjeti hisobidan ijtimoiy-iqtisodiy xarajatlari va hududlar bo'yicha yo'naltirilgan mablag'lari ijrosi nazoratini tashkil qilishga qaratilgan tadqiqotlarning yetishmasligini ta'kidlaydigan adabiyotlarni ko'rib chiqish, budjet daromadlari, budjet xarajatlari hamda ularning sohalar va hududlar bo'yicha tahlillari amalga oshirilgan. Asosiy tahlillar deduksiya usulidan foydalanilgan, ya'ni umumiy ma'lumotlar asosida tizimga budjet jarayonidagi holatiga baho berilgan. Shuningdek, yillar bo'yicha tahlillar asosida analiz va sintez usullaridan foydalangan holda xulosalar qilingan. Tadqiqot dizayni asosan miqdoriy ko'rsatkichlar tahlil qilinadi hamda indeksiyadan

deduksiyaga qarab xulosalar qilanadi. Shuningdek, ma’lum bir tahlillarni baholashda sifat ko’rsatkichlardan ham foydalanish nazarda tutilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 26-28-boblarida yoritilgan bo‘lib, 171-moddasida davlat moliyaviy nazorati organlari belgilangan (Budget kodeksi, 2013). Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar hamda Soliq qo‘mitasi davlat moliyaviy nazorati organlaridir.

Jumladan, budget tizimi budgetlarining daromadlar qismini tahlil qiladigan bo‘lsak, davlat moliyaviy nazoratining asosiy qismi soliq qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladigan soliq nazoratidan iborat bo‘ladi (Soliq kodeksi, 2019). Bundan tashqari, Hisob palatasi tomonidan tashqi audit va moliyaviy nazorat tadbirlari orqali daromadlar nazorati amalga oshiriladi (O‘RQ-546, 2019). Bugungi kunda, Hisob palatasida “Iqtisodiyotda yashirin aylanmani qisqartirish va budget daromadlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash sho‘basi” mavjud (PF-60-son, 2022).


Shuningdek, Budget kodeksining 173-moddasida davlat moliyaviy nazoratining shakllari, turlari va usullari ham belgilangan. Mazkur moddada taftish, tekshirish va o‘rganish davlat moliyaviy nazoratining shakllari sifatida belgilangan bo‘lsa uning turlari dastlabki, joriy va yakuniy tarzda keltirilgan.

Davlat moliyasini boshqarish strategiyasini amalga oshirilishining ta‘sir omillari sifatida normativ hujjatlarning o‘zgarishi, natijadorlikka erishishga qaratilgan moliyalashtirish, nomarkazlashtirilgan nazorat tizimini takomillashtirish, fiskal risklarni aniqlash, boshqarish hamda bartaraf qilishga yo‘naltirilgan.

Davlat sektoriga ichki nazorat va ichki audit tizimini joriy etish orqali davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, budget qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy auditni kengaytirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori bilan vazirlik va idoralar ichki audit xizmatlari faoliyatida budget qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar belgilandi.

Bunda asosan, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini rivojlantirish, ularning faoliyatida masofaviy auditni keng ko‘lamda qo‘llash orqali ichki audit tadbirlari samaradorligini oshirishga e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-sonli qarori bilan vazirlik va idoralarda tashkil etilgan ichki audit xizmatlarining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda ularning faoliyatini tashkil etishning umumiy qoidalarini belgilovchi Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to‘g‘risida namunaviy nizom tasdiqlandi. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-fevraldagi 62-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.



**1-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining usullari (Budget kodeksi, 2013).**


Ushbu nizom bilan ichki audit milliy malaka sertifikatini olish uchun talabgorlarga qo'yiladigan malaka talablari, malaka imtihonini tashkil etish, o'tkazish hamda malaka sertifikatini berish, muddatini uzaytirish va qayta rasmiylashtirish hamda ichki audit milliy malaka sertifikatiga ega xodimlarning malaka oshirish kursini tashkil etish va o'tkazish tartibi belgilandi. Shu bilan birga, nizomga muvofiq davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi va ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlashni tashkil etish va ularning malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yildi. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-sonli qarori bilan Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi. Ushbu nizom bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligini tomonidan vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash va takomillashtirib borish tartibi belgilandi.

Bundan tashqari, JBning "Institutsional salohiyatni oshirish" loyihasi doirasida PriceWaterhouseCoopers(PWC) xalqaro konsalting kompaniyasi xorijiy ekspertlari bilan birgalikda Ichki auditning milliy standartlari va Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi ishlab chiqildi<sup>2</sup>. Ichki audit milliy standartlari bilan ichki audit faoliyatining asosiy tamoyillari,

<sup>2</sup> 2022-yil 24-oktyabrda 3394-son bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazildi. 2022-yil 27-dekabrda 3406-son bilan Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilgan.

ichki audit xizmatining mustaqilligi, ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta’minlash va oshirib borish hamda ichki audit tadbirlarini o’tkazish bilan bog’liq talablar belgilandi.

Ichki audit tadbirlarini o’tkazish qo’llanmasi bilan ichki audit tadbirlarining xavf tahlili asosida rejalashtirish, o’tkazish, natijalar yuzasidan hisobot rasmiylashtirish hamda taklif va tavsiyalarning bajarilishini monitoring qilish joriy etildi.



**2-rasm Ta’lim va sog’liqni saqlash vazirliklari ichki audit xizmatlari faoliyatining natijalari to’g’risida ma’lumot (2019-2022) ((mlrd so’mda)**

*Manba: Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.*

Moliya yili bo’yicha 2022-yilda 175,0 mlrd so’m miqdoridagi mablag’lar ichki audit tadbirlari orqali tejab qolingan. Ushbu ko’rsatkich miqdor bo’yicha tejab qolingan mablag’larning 698,0 mlrd,so’mi budjet tashkilotlarida budjet hisobi to’g’ri yuritilishini ta’minlashga qaratilgan.

Shuningdek, vazirliklar va idoralar ichki audit xizmatlari tomonidan masofaviy audit keng joriy qilingan. 2023 yil davomida jami 33 ta jumladan, 16 ta vazirlik, 3 ta qo’mita, 8 ta agentlik va 6 ta boshqa tashkilotlarda ichki audit xizmatlari faoliyat olib bordi. 2023 yil davomida ichki audit xizmatlari tomonidan o’tkazilgan audit tadbirlari davomida jami 150,0 mlrd so’mlik budjet mablag’lari maqbullashtirildi.

### **Xulosa**

Davlat moliyasini boshqarishning asosiy vazifalaridan biri budjet ijrosini nazorat qilishdir. Ushbu tashkilotlar o’z faoliyatida ijro natijalarini tekshirishni amalga oshiradi. Shuningdek, budjet ijrosidagi kassa qilish usulida, natijaga yo’naltirilgan budjetlashtirish orqali bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Budjet mablag’larini taqsimlovchilarining klassifikatsiyalanishi ham ularning davlat budjeti ijrosida o’zining sohasi hamda tarkibidagi budjet tashkilotlari hamda budjet mablag’lari oluvchilari bo’yicha Oliy majlisga hisobdorlik belgilangan. Shu sababdan ham, budjet mablag’lari taqsimlovchilarning budjet ijrosidagi faoliyatida ichki audit tizimini joriy etish va monitoring jarayonlarini kuchaytirish bo’yicha chora-tadbirlar esa ushbu islohotlarning eng muhim qismi bo’lib hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “2020 - 2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qaroriga. 24.08.2020 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” 2022 yil 18 yanvardagi PF-60-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to‘g‘risidagi Qonuni, 01.07.2019 yildagi O‘RQ-546-sonli.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 30-dekabrda PQ-4555-son qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” 2022 yil 18 yanvardagi PF-60-sonli farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksi. O‘RQ-360-son.2013 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2019 yil.
8. Addison, D. 2013. “The Quality of Budget Execution and Its Correlates.” Policy Research Working Paper 6657, World Bank, Washington, DC.
9. Maguire C, M. Houck, R. Williams, P. Speaker, Efficiency and the cost effective delivery of forensic science services: in-sourcing, out-sourcing, and privatization, Forensic Sci. Policy Manag.: Int. J. 3 (2) (2012) 62e69. [13]
10. IMF. 2017a. “Building Fiscal Capacity in Fragile States.” IMF Policy Paper, International Monetary Fund, Washington, DC.
11. Matveeva N.S. (2020) Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishning xalqaro tajribasi // Moliyaviy jurnal. T. 12. No 2. S. 69–95. DOI: 10.31107/2075-1990-2020-2-69-95.
12. Schick, A. 1998. A Contemporary Approach to Public Expenditure Management. Washington, DC: World Bank.
13. Прокофев С.Е.(2015) Новатсии в сфере государственного финансового контроля, осуществляемого казначейством россии Финансы и кредит.
14. Самаруха В.И., Деревсова И.В.(2018) Государственный финансовый контрол в российской федератсии Учебное пособие Иркутск Издательство.
15. Шохин С.О.(2018) Контрол, надзор и аудит в финансовой сфере. Ж-л «Финансовое право», №12.
16. Ye, X., Yue, P., 2024. What matters to reshaping consumption patterns in China? Digital inclusion and supply chain. *Financ. Res. Lett.* 59, 104804. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2023.104804>.
17. Khalid, F., Sun, X., Akram, R., Srivastava, M., 2024. Digital finance and corporate environmental violations. *Financ. Res. Lett.* 66, 105674. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2024.105674>.